

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Oziq-ovqat texnologiyasi va**  
**muhandisligi xalqaro instituti rektori**



**R.Tojiyev**  
**2023 yil**

**Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti**  
**professor-o‘qituvchilari va xodimlarining korrupsiyaviy xatti-**  
**xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish xolatlari ustidan xizmat**  
**tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha**  
**Reglament**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti (keyingi o‘rinlarda “Institut”) professor-o‘qituvchilari va xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik xujjatlari yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy xujjatlarini buzilishi yuzasidan, ularga nisbatan xizmat tekshiruvini (keyingi o‘rinlarda — xizmat tekshiruvi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Institutdagi xizmat tekshiruvi quyidagi tamoyillar asosida o‘tkaziladi:

- qonuniylik;
- Institut xodimlarining fuqarolarning xuquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishiga;
- fuqarolar xuquq va erkinliklarini ta’minlash va ximoya qilish;
- xizmat tekshiruvi o‘tkazishda olingan axborot va materiallarning maxfiyligiga;
- Institut xodimlari tomonidan xizmat tekshiruvi o‘tkazishdagi shaffoflik, xalollik, kollegiallik, betaraflik va xolislik;

Xizmat tekshiruvi olib borilayotgan Institut xodimining aybsizlik prezumpsiyasi.

**2-bob. Xizmat tekshiruvni tayinlash**

3. Xizmat tekshiruvi Institut professor-o‘qituvchilari va xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy xujjatlarining buzilganligi to‘g‘risidagi asosli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda tayinlanadi.

4. Bunday ma’lumotlar quyidagi manbalardan kelishi mumkin:

Institut professor-o‘qituvchilari va xodimlarining yozma yoki og‘zaki shakldagi bevosita raxbari yoki boshqa vakolatli shaxsga bergan ma’lumoti;

jismoniy va yuridik shaxslarning Institutning aloqa kanallariga yuborgan xabarlar, shu jumladan, anonim xabarlar; jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari;

ommaviy axborot vositalaridagi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar;

O'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan, ijtimoiy va statistik tadqiqotlar natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar; ichki audit va moliyaviy nazorat bo'linmalari, shuningdek, davlat moliyaviy nazorat organlari va O'zbekiston Respublikasi xisob palatasining xulosalari;

Komplayens nazorat bo'limi tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki talablar monitoringi va ularga rioya qilish ustidan nazorat natijalari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Maxkamasi va davlat xokimiyatining boshqa organlarining topshiriqlari;

qonunchilikda belgilangan boshqa korrupsiyaviy xarakterdagi xabarlar.

5. Quyidagilar xizmat tekshiruvi tashabbuskorlari bo'la oladi:

Institut raxbari va uning o'rinbosarlari;

xududiy va tarkibiy bo'linmalar raxbarlari;

Institutning odob-axloq komissiyasi;

Komplayens nazorat bo'limi;

Institutning ichki audit raxbari;

Institutning Inson resurslarini boshqarish bo'limi boshlig'i;

xuquqni muxofaza qiluvchi organlarning taqdimnomalari.

6. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to'grisida mazkur Reglamentning 4-bandida ko'rsatilgan manbalardan kelib tushgan har qanday ma'lumotga nisbatan komplayens nazorat bo'limi xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun yetarli asos va ma'lumotlar mavjudligi, shuningdek, kelib tushgan ma'lumotning Institut xodimlariga aloqasi bor-yo'qligini aniqlash nuqtai nazaridan dastlabki tekshiruv va taxlil qilishni amalga oshiradilar.

7. Bunda ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilishi mumkin bo'lgan yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan xodimlarni dastlabki tekshiruv jarayoniga jalb qilish taqiqlanadi.

8. Dastlabki tekshiruv tegishli ma'lumot kelib tushgan kundan boshlab qo'shimcha muddat talab etilmasa 10 (O'n) ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi. Xizmat tekshiruvi muddati 30 kalendar kundan ortiq bo'lishi mumkin emas.

9. Institutga aloqador bo'lgan qoidabuzarlik sodir etilgani, sodir etilishi mumkin bo'lgani yoki sodir etilayotganini taxmin qilishga asos borligi aniklansa, u xolda komplayens nazorat xizmati Institut rektori nomiga yozma xizmat xabarini jo'natadi.

10. Agar Xizmat tekshiruvi Institut rektorining yoki uning o'rinbosarlariga nisbatan tayinlangan bo'lsa, (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan korrupsiyaviy

xatti-xarakatlar, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvini yashirishga oid xolatlarini sodir etganlikda gumon qilingan xollarda) u xolda tegishli ma’lumotlar Komplayens nazorat xizmati tomonidan o‘rnatilgan tartibda Institut kengashi yoki xuquqni muxofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

11. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘grisida qaror qabul qilish bilan bir vaqtda Institut rektori xizmat tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha ishchi gurux raxbarini tayinlaydi va unga ishchi gurux tarkibini shakllantirishni va xizmat tekshiruvni o‘tkazish to‘g‘risida buyruq tayyorlash vazifasini topshiradi.

12. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘grisidagi buyruqda quyidagilar ko‘rsatiladi:

Xizmat tekshiruvi predmeti (mavzusi);

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilishiga asos bo‘lgan sabab yoki vaziyat;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazishga sabab bo‘lgan qoidabuzarlikni sodir etishda gumonlanayotgan xodim), u (lar)ning FISH va lavozimi (bo‘linma (boshqarma, bo‘lim) nomi) ma’lum bo‘lsa;

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun ma’sul bo‘lgan ishchi gurux tarkibi;

Ishchi gurux a’zolari va raxbarining xuquq va majburiyatlari;

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish va natijalarni taqdim etish muddati.

13. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘grisidagi buyruq loyixasi Institut rektoriga imzolash uchun xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 kun ichida taqdim etilishi kerak.

### **3-bob. Xizmat tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha ishchi gurux tuzish**

14. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish bo‘yicha ishchi gurux tarkibi, ishchi gurux raxbari taklifiga asosan tuziladi, qoida tariqasida unga komplayens nazorat bo‘limi, Inson resurslarini boshqarish bo‘limi, ichki audit va moliyaviy nazorat bo‘linmalari xamda lavozim majburiyati xizmat tekshiruvi predmeti bo‘lgan yoki shunga yaqin bo‘lgan boshqa bo‘linmalar xodimlari kiritilishi mumkin.

15. Quyidagi xodimlar ishchi gurux tarkibiga kiritilmaydi:

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimning yaqin qarindoshlari;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimning bevosita bo‘ysinuvidagi xodim;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimning bevosita raxbari;

16. Ishchi guruxni shakllantirish uchun ma’suliyat ishchi gurux raxbari zimmasida bo‘ladi. U mazkur Reglamentning 15-bandida ko‘rsatilgan potensial manfaatlar to‘qnashuvi xolati mavjudligi bo‘yicha gurux a’zolarini tekshirishi shart.

#### **4-bob. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish**

17. Agar xizmat tekshiruvi jarayonida 8-bandda ko‘rsatilgan muddatlarning uzayishiga olib keladigan qo‘shimcha tartib-taomillar (shu jumladan, xodimlar va boshqa shaxslar orasida qo‘shimcha so‘rovnoma o‘tkazish) o‘tkazilishi, qo‘shimcha xujjatlarni so‘rab olish talab etilsa, u xolda ishchi gurux raxbari bu xaqda ma‘lum bo‘lishi bilan majburiy tartibda, xizmat tekshiruvi to‘g‘risidagi buyruqni imzolagan raxbarni xabardor qiladi. Bunday xolatlarda, xizmat tekshiruvini o‘tkazish muddatlari 30 (o‘ttiz) kalendar kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

18. Ustidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodim yo‘q bo‘lgan xolda (ta‘til, kasallik, xizmat safari va boshqalar), u vaqtincha to‘xtatiladi, uning muddati esa avtomatik tarzda ushbu xodim yo‘q bo‘lgan davrga uzaytiriladi.

19. Ustidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimga, ishchi gurux raxbarining tavsiyasiga asosan Institut, raxbari buyrug‘i bilan ma‘lum bir axborot tizimlari, muayyan xujjatlardan foydalanishga cheklov qo‘yilishi mumkin. Ushbu xolatda qabul qilingan buyruq xaqida, ustidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodim, shu kunning o‘zida buyruqqa imzo chektirilgan xolda tanishtiriladi. Buyruq bilan tanishish rad etilgan xolda bu xaqida ishchi gurux raxbari tomonidan dalolatnoma tuziladi.

20. Xodimga nisbatan ma‘lum bir axborot tizimlari, muayyan xujjatlardan foydalanishga cheklov qo‘yishga oid buyruq xizmat tekshiruvi o‘tkazishning muddatidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

#### **5-bob. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida o‘rganiladigan ma‘lumotlar**

21. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida ishchi gurux qoidabuzarlikka aloqador bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plash, taxlil qilish va xujjatlashtirish ishlarini amalga oshiradi, shu jumladan: qoidabuzarlik, uni sodir etish sabablari nimada aks etadi; qonunchilik xujjatlari va Institutning ichki idoraviy xujjatlari talablari;

Qoidabuzarlikni sodir etish vaqti, joyi, usuli;

Qoidabuzarlikni sodir etishga jalb qilingan shaxslar doirasi (Institut xodimlari bilan bir qatorda uchinchi shaxslar xam);

qoidabuzarlikning og‘irlik darajasi;

Institutga yetkazilgan moddiy va nomoddiy, obro‘-e‘tibor xarakteridagi zararining ko‘rinishi va ko‘lami;

Qoidabuzarlikni sodir etishga aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa ma‘lumotlar.

22. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida olinadigan ma‘lumotlar manbasi quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Ustidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodim, Institutning boshqa xodimlari, uchinchi shaxslarning yozma yoki og‘zaki tushuntirishlari;

tasdiqlovchi xujjatlar (yozma va elektron shaklda);  
internet tarmog'ining ommaviy tizimida joylangan axborot manbalarining ma'lumotlari; audioyozuvlar, foto va video syomkalar;  
qoidabuzarlikka aloqador bo'lgan boshqa materiallar.

23. Institut xodimlari yoki jalb etilgan boshqa shaxslar bilan o'tkazilgan suxbat jarayoni audio yoki video qayd qilinishi, suxbat to'grisida bayonnoma tuzilishi kerak (audio yoki video qayd xizmat tekshiruv materiallariga qo'shib ko'yiladi).

Audio va video qaydni amalga oshirishdan oldin suxbat o'tkazilayotgan shaxsning roziligi olinadi. Rozilik berilmasa audio va video qaydni amalga oshiruvchi uskunalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

24. Ustidan xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan yoki boshqa xodimning suxbat yoki tushuntirish berishdan bosh tortilgan hollarda ushbu Reglamentning 1 -ilovasiga mos shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

25. Ishchi gurux raxbari mazkur xodimni dalolatnoma bilan tanishganligini tasdiqlash uchun unga imzo qo'yishi zarurligi to'grisida xabardor qiladi. Agar xodim xujjatga imzo qo'yishdan bosh tortsa, u xolda ishchi gurux raxbari xujjatga tegishli belgi qo'yadi.

26. Ustidan tekshiruv o'tkazilayotgan xodim tomonidan dalolatnomaga (yoki boshqa xujjatlarga) imzo (qo'ymaslik unga nisbatan qonunchilik xujjatlariga muvofiq tegishli javobgarlik chorasini qo'llashdan ozod qilmaydi.

## **6-bob. Ishchi gurux raxbari va a'zolarining xuquq va majburiyatlari**

27. Ishchi gurux raxbari xizmat tekshiruvining samaradorligi va natijasi, shuningdek, ishchi gurux a'zolarining mazkur reglament bilan belgilangan talablarga amal qilishlari uchun ma'sul bo'ladi.

28. Xizmat tekshiruv o'tkazish davomida ishchi gurux raxbari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Xizmat tekshiruv o'tkazishning yo'nalishlari, amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilaydi, ishchi gurux a'zolari oldiga vazifalar qo'yadi;

Ishchi gurux tomonidan xizmat tekshiruv o'tkazilishini tashkillashtiradi va muvofiqilashtiradi;

Ishchi gurux tomonidan xizmat tekshiruvining ushbu reglamentga muvofiq ravishda o'tkazilishini nazorat qiladi;

Xizmat tekshiruvini xolis va samarali o'tkazish uchun zarur bo'lgan choralar ko'rilishini ta'minlaydi (masalan, Institutdagi ma'lumotlarni yo'q qilish jarayonlarini to'xtatib turishni talab qiladi, tegishli xodimlarga nisbatan tekshiruv o'tkazilayotgan davrda ma'lum bir axborot tizimlari, muayyan xujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yishni tavsiya qiladi, zaruriyat tug'ilganda tekshiruvni o'tkazishning maksimal muddatlarini uzaytirish bo'yicha taklif tayyorlaydi va boshqalar);

Institut va tarkibiy bo‘linma boshlig‘iga xizmat tekshiruv natijalarining taqdim etilishini ta‘minlaydi.

29. Xizmat tekshiruvini o‘tkazishda ishchi gurux raxbari va a‘zolari qo‘yidagi xuquqlarga ega:

Institut xodimlari bilan suxbat o‘tkazish, tushuntirish olish, tekshiruv moxiyati to‘grisida ma‘lumotga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan uchinchi shaxslar, shuningdek, tashki ekspertlarni ularning roziligi bilan xizmat tekshiruv jarayoniga taklif qilish. Uchinchi shaxslar va tashki ekspertlarni jalb qilish masalasi Institut, xududiy va tarkibiy bo‘linma raxbari bilan kelishilishi shart; suxbatni yozma shaklda yoki zaruriyat tugilganda tushuntirish berayotgan shaxsning roziligi bilan audio-va videoqayd etuvchi uskunalar qo‘llash bilan kayd etishni amalga oshirish;

Institut xodimlaridan xizmat tekshiruviga aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan materiallarni olish;

Institutning mulkining bus-butunligini xatlov va taftishdan o‘tkazish;

O‘tkazilayotgan xizmat tekshiruv doirasida uz lavozim majburiyatlarini bajarish uchun foto- va videoqaydlarni amalga oshirish.

30. Ishchi gurux raxbari va a‘zolari majburiyatlari:

Xizmat tekshiruvini o‘tkazishda ushbu reglament, Institutning boshqa ichki xujjatlari va qonunchilik talablariga amal qilish;

Xizmat tekshiruv moxiyati bo‘yicha mavjud barcha materiallarni tuplash;

Xizmat tekshiruv maksadlari uchun axamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlarning (xujjatlar, elektron ma‘lumotlar va b.) butligini saqlash bo‘yicha choralar qo‘rish; mazkur reglament, Institutning boshqa ichki xujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kuzda tutilgan xolatlardan tashkari xizmat tekshiruv o‘tkazish doirasida olingan ma‘lumotlarning mutlaqo maxfiyligini saqlash va oshkor qilmaslik; mazkur Reglament talablariga muvofik ravishda tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish, shu jumladan, javobgarlik choralari, shuningdek, qoidabuzarlik sabablari va qoidabuzarlikni sodir etishga turtki bo‘lgan shartlarni bartaraf qilish imkonini beradigan choralarni qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chikish.

## **7-bob. Ustidan xizmat tekshiruv o‘tkazilayotgan xodimlarning xuquqlari**

31. Ustidan xizmat tekshiruv o‘tkazilayotgan xodim quyidagi xuquqlarga ega:

Xizmat tekshiruv o‘tkazish vaqti to‘grisida xabardor bo‘lish; qoidabuzarlikning sodir etilishi sabablari va sharoitlari, xizmat tekshiruvining borishi haqida uz fikr-muloxazalarini ifodalash xuquqi bilan yozma va ogzaki tushuntirishlar berish, shuningdek, uning tushuntirishlarini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan isbotdalillarni taqdim etish;

Tushuntirishlar taqdim etishdan bosh tortish — bu xolda ushbu reglamentning kuzda tutilgan dalolatnoma tuziladi; uzi tomonidan taqdim

etilgan, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvini, xizmat tekshiruvini materiallariga aloqador bo'lgan hujjat va materiallarga qo'shib qo'yishni talab qilish;

Xizmat tekshiruvini tugaganligi to'g'risidagi xabarni olish va bunday xabar olingandan keyin 2 (ikki) kun ichida xizmat tekshiruvini ma'lumotnomasining unga tegishli qismi bilan u tasdiqlanishiga qadar tanishish (u foydalanish va o'z muloxazalarini qo'shib qo'yish xuquqiga ega bo'lmagan konfidensial axborotdan tashkari); mexnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan xuquqlardan to'liq foydalanish.

Xizmat tekshiruvini natijalaridan, shu jumladan, ishchi gurux tomonidan tekshiruv yakunlari bo'yicha taklif etilgan javobgarlik chorasidan norozi bo'lgan taqdirda ushbu qaror ustidan Institut raxbariga yoki yuqori turuvchi idoralarga shikoyat qilish.

### **8-bob. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinadigan boshqa xodimlarning xuquq va majburiyatlari**

32. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinadigan xodimlar xizmat tekshiruvini o'tkazishda ishchi guruxga xar tomonlama ko'mak berish, shu jumladan, xizmat tekshiruvini bo'yicha talab qilingan tushuntirishlar, ma'lumot va hujjatlarni berishlari, ishchi gurux a'zolari tomonidan tashkil etiladigan suxbatlarda ishtirok etishlari mumkin.

33. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinayotgan xodimlar ularning tekshiruvda ishtirok etishlari sababli ularga ma'lum bo'lgan xizmat tekshiruvini ma'lumotlarini belgilangan tartibda rozilik berilmasdan oshkor qilishga xaqli emaslar.

34. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinayotgan xodimlar qo'yidagi xuquqlarga ega:

O'zlari va yaqin qarindoshlarga qarshi guvohlik bermaslik;

Institut raxbariga ishchi gurux raxbari va a'zolarining xarakatlari (xarakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.

### **9-bob. Xizmat tekshiruvini natijalarini rasmiylashtirish**

35. Xizmat tekshiruvini natijalari buyicha ishchi gurux raxbari, uning barcha a'zolari, xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim tomonidan imzolangan ma'lumotnoma tuziladi.

36. Ma'lumotnoma mazkur Reglamentga 2-ilovaga muvofiq shaklda tuzilib, kirish, bayon, xulosa va taklif qismidan iborat bo'ladi.

37. Ma'lumotnoma yoki uning aloxida bandlaridan norozi bo'lgan, ishchi gurux a'zosi shuningdek ustidan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan shaxs yozma ravishda rasmiylashtirilgan va ishga tirkalgan xolda aloxida fikrda ekanligini bildirgan belgi bilan ma'lumotnomaga imzo qo'yishi mumkin.

38. Ustidan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan shaxs ma'lumotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan hollarda dalolotnoma rasmiylashtiriladi. Ushbu

dalolotnomaga ishchi gurux a'zolaridan tashqari, xizmat tekshiruvi natijalaridan manfaatdor bo'lmagan kamida ikki nafar shaxs imzo qo'yishi lozim,

39. Ma'lumotnomaga asosan Institut, xududiy va tarkibiy bo'linma raxbari qo'yidagi qarorlarni qabul qilishi mumkin:

Qoidabuzarlik to'g'risidagi ma'lumot tasdiqlamaganligi munosabati bilan xizmat tekshiruvi tuxtatish; sabablar va muddatlari ko'rsatilgan xolda xizmat tekshiruvi materiallarini qo'shimcha ishlash uchun, zaruriyat tugilganda esa — ishchi gurux tarkibini uzgartirish uchun qaytarish; aybdor xodimni intizomiy javobgarlikka tortish;

xodimga nisbatan profilaktik xarakterdagi choralarni qo'llash;

kelgusida shu kabi qoidabuzarliklar sodir bo'lishining oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish; xuquqbuzarlik yoki jinoyat alomatlari tasdiqlangan holda, tegishli materiallarni xuquqni muxofaza qilish organlariga taqdim etish.

40. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi ma'lumotnoma Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat xizmatiga, kadrlar bilan ishlovchi tarkibiy bo'linmalarga taqdim etiladi.

41. Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga sabab bo'lgan ma'lumot haqida xabar bergan shaxslar qoidabuzarlik tasdiqlangani yoki tasdiqlanmagani, shuningdek ko'rilgan choralar haqida umumiy tarzda xabardor qilinadi.

## **10-bob. Xizmat tekshiruviga oid xujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish**

42. Xizmat tekshiruvida ishtirok etayotgan Institut xodimlari tekshiruv davomida ularga ma'lum bo'lgan axborotning maxfiy ta'minlaydilar (qonunchilikda kuzda tutilgan xolatlar bundan mustasno).

43. O'z lavozim vazifalarini bajarish uchun o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari haqidagi axborotdan foydalanishi zarur bo'lgan xodimlar, ushbu axborotdan foydalanishi uchun Institut, xududiy va tarkibiy bo'linma raxbarining yozma roziligini olishi lozim.

44. Xizmat tekshiruviga oid materiallar ishchi gurux raxbari tomonidan aloxida yig'majildga raqamlangan va tikilgan xolda korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat xizmati va xodimlar bilan ishlash bo'limiga topshiriladi.

45. Institutning rahbariyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat xizmati, tarkibiy bo'linmalardagi ushbu vazifa yuklangan bo'linmalar mazkur reglamentga 3-ilovaga muvofiq shaklda xizmat tekshiruvlari elektron reyestrini yuritilishini ta'minlaydi. Tarkibiy bo'linmalar o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari elektron reyestrini xar choraqda korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat xizmatiga taqdim etishlari shart.



46. Xizmat tekshiruviga oid barcha xujjatlar, agar boshqacha tartib qonunchilikda kuzda tutilmagan bo'lsa, tasdiqlangan vaktidan boshlab 10 (o'n) yil davomida saqlanishi lozim.

47. Xizmat tekshiruvida ishtirok etayotgan Institut xodimlariga ushbu Reglament bilan o'rnatilgan talablarga rioya qilinishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklatiladi.

Institut professor-o'qituvchilari va xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish xolatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamentga 1-ilova

## DALOLATNOMA

20\_\_ y.

Biz, qo'yida imzo qo'yuvchilar

\_\_\_\_\_  
(FISH, lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(FISH, lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(FISH, lavozimi)

Xodim (FISH, lavozimi) 20—yilning «--»da

\_\_\_\_, dan iborat bo'lgan qoidabuzarlik sodir etilganligi to'grisida yozma tushuntirish berish taklif etilgan bo'lib, u yozma tushuntirish berishni rad etgani to'grisida ushbu akti tuzdik.

Yozma tushuntirish berishni rad etganligi sabablarini xodim (FISH, lavozimi) qo'yidagilar bilan izoxdadi

\_\_\_\_\_(tushuntirish berishni rad etganlik sabablari erkin shaklda bayon etilsin).

Dalolotnoma tuzgan shaxslar imzosi:

_____	_____	
_____	(imzo)	(FISH)
_____	_____	
_____	(imzo)	(FISH)
_____	_____	
_____	(imzo)	(FISH)

Dalolotnoma bilan tanishdim\* : (FISH, lavozim, sana, imzo)

Dalolotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortsa, ishchi gurux raxbari «imzolashdan bosh tortdi» yozuvini kiritib, o'zi imzo qo'yadi.

Institut professor-o'qituvchilari va xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish xolatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamentga ilova

## Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risida ma'lumotnoma

-son

1. Asos: Institut raxbarining buyruqi (sana va raqami)
2. Ishchi guruxga tarkibi: Ishchi gurux raxbari

Ishchi gurux a'zolari

---

(lavozimi, familiyasi, inisiallari)

---

(lavozimi, familiyasi, inisiallari)

3. Xizmat tekshiruvini o'tkazilgan muddati:
4. Tekshiruv o'tkazish uchun asoslar (kelib tushgan xabarning kiskacha mazmuni):

---

5. Bayon qismi (xizmat tekshiruvida aniklangan vaqtlar): qoidabuzarlik sodir bo'lganmi va u nimalarda ifodalangan; qoidabuzarlik sodir etilgan joyi, vakti, usuli va qoidabuzarlikni sodir etishning boshqa sharoitlari;

Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim(lar)ning ma'lumotlari (FISH, lavozimi, (tuzilmaviy bo'linma nomi (boshqarma, bo'lim nomini ko'rsatgan xolda), mexnat shartnomasi tuzilgan sana, ushbu xodimga nisbatan xizmat tekshiruvi avval xam o'tkazilganmi); qoidabuzarlikni sodir etishga aloqador bo'lgan shaxslar doirasi; qoidabuzarlikni sodir etish maksadlari va sabablari; qoidabuzarlikni sodir etishga turtki bo'lgan sabab va shartlar; konkret xodimning aybdorligini tasdiqlovchi yoki uning aybsizligiga guvohlik beruvchi to'plangan ma'lumotlar taxlili;

Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning o'z himoyasi uchun keltirgan dalillari, ularni tekshirish natijalari.

6. Xulosa va takliflar:
  - a) xulosa qismida:

Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan shaxs(lar)ning xarakat(lar)ida (xarakatsizligida) qoidabuzarlik mavjud yoki yukligi to'g'risida xulosa; qoidabuzarlik bo'lsa, talablari buzilgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki Institutning ichki xujjatlari nomi, sanasi va buzilgan qoida mazmuni; qoidabuzarlik sodir etish natijasida yetkazilgan zarar xarakteri va ko'lam (mavjud bo'lsa);

b) taklif qismida aybdor shaxs (lar)ni javobgarlikka tortish bo'yicha takliflar; qoidabuzarlik sodir etishga olib keladigan sabab va shartlarni bartaraf qilishga qaratilgan tavsiyalar;

Xizmat tekshiruvi materiallarini xuquqni muxofaza qilish organlariga taqdim etish zaruriyati.

Ishchi gurux a'zolari imzolari:

Ma'lumotnoma bilan tanishdim\*:

---

(FIGI, lavozimi)

(imzo)

(sana)

\* Ma'lumotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortsa, ishchi gurux raxbari «imzolashdan bosh tortdi» yozuvini kiritib, uzi imzo qo'yadi.

Institut professor-o'qituvchilari va xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish xolatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamentga ilova

### Xizmat tekshiruvlari elektron reyestri

T/r	Хизмат текшируви ўтказиш тўғрисидаги буйруқ рақами ва санаси	Ўтказилган Хизмат текшируви натижалари тўғрисидаги маълумотнома рақами ва санаси	Хизмат текшируви ўтказиш даври	Ишчи гуруҳ таркиби	Қоидабузарлик тўғрисидаги ахборот келиб тушган манба	Хизмат текшируви ўтказиш йўналишларининг қисқача таърифи	Текширув натижаларининг қисқача таърифи	Аниқланган айбдор шахслар рўйхати	Текширув натижалари бўйича тасдиқланган чоралар	Муддатлар ва ижро учун маъсул	Амалда бажарилганлик тўғрисидаги ахборот
1	2	3	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1											
2											
3											
4											
5											
..											